


ҲАЙРАТ ВА ТАЛҚИН



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ ҲУЗУРИДАГИ
ИЖОДКОР ЁШЛАР МАРКАЗИ

**ҲАЙРАТ
ВА
ТАЛҚИН**

Тошкент “Наврӯз” нашриёти,

2017

ривожлантириш, ижодий ва мустақил фикрлаш малакаларини ошириш каби педагогик тадбирлар изчиллик билан йўналтирилади.

3. Адабий таълимнинг барча босқичларида ўқувчиларда эзгу маънавий хислатларнинг шакллантирилишига диққат қаратилади.

4. Умумий ўрта таълим мактаблари таркиби ҳамда ўқувчиларнинг ёш ва руҳий хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда адабиёт ўқитиш қуйидаги икки босқичда амалга оширилади.

Бошланғич синфлар. Ўқувчилар китобхонлик маданияти асосларини ўрганишади. Уларда тўғри, ифодали ва тушуниб ўқиш кўникмаларини шакллантиришга биринчи даражали эътибор қаратилади. Бу босқичда адабиёт алоҳида ўқув предмети ҳисобланмаса ҳам ўқувчиларда эстетик дидни, бой ва таъсирчан ҳиссиётни, нозик туйғуларни қарор топдиришда муҳим ўрин тутди. Бола маънавиятининг асослари шакллантириладиган бошланғич синфларда «Ўқиш», «Она тили», «Тарих», «Табиатшунослик» дарсларида фойдаланиладиган матнларнинг бадий бўёқдор бўлиши ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу даврдаги адабий таълим ўқувчиларда ҳиссий таъсирчанлик, тасаввур ва сезимлар бойлиги, ижодий фантазия, нутқ равллиги, ўқиш техникаси, китобхонлик одати сингари сифатлар шаклланишига йўналтирилади.

Ўрта мактаб босқичи (V-IX синфлар). Ушбу босқичда «Адабиёт» алоҳида ўқув предмети тусини олади. Адабий таълимнинг иккинчи босқичида ўқувчилар адабиётни бадий сўз ҳақидаги фан, кўркем сўзнинг фолклор, асотирлар, ёзма адабиёт, назарий тушунчалар сингари кўринишларини бирлаштирадиган алоҳида метатизим сифатида англайдилар. Талабалар ана шу тизим ичидаги турли қатламларни аста-секинлик билан ўзлаштириб, уларнинг моҳиятига кириб борадилар. Бу босқичда бошланғич мактаб давридагига қараганда анча мураккаб бадий асарлар ўрганилиши кўзда тутилади. Бу ҳол ўқувчилар маънавий такомиллашуви ва тафаккури тараққиётига таъсир кўрсатади.

Педагогика ва психология илми ҳамда ўқитиш амалиёти ўрта мактаб босқичини V-VII ва VIII-IX синфлар тарзида икки бўғичга бўлиб мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Гарчи, бу синфларнинг ўқувчилари битта ўрта мактаб босқичига мансуб бўлсалар-да, амалда бир-бирларидан жиддий фарқ қиладиган икки авлод вакиллари ҳисобланади.

BIR G'AZAL ASOSIDA ESKI O'ZBEK TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Sayliyeva Zarina, BuxDU magistranti

G'azalda 159 so'z ishtirok etib, 118 ta so'zdan foydalanilgan. Bu Alisher Navoiyning yuksak san'atkorligidan dalolat beradi. 118 ta so'zdan hozirgi oddiy kитobxon uchun notanishlari 22 ta. Bu so'zlar va ularning lug'aviy ma'nosi quyidagicha (g'azalda qo'llanilish tartibiga ko'ra):

1. zihi - sabali (bog'lovchi)
2. zuhur - ko'rinish, paydo bo'lish(ot)

3. savdo - fikr, o'y-hayol(ot)
4. kavnayn - ikki olam(ot)
5. otashgoh - o'txona(ot)
6. samandar - afsonaviy qush(ot)
7. sun'(ung) - yasash, yaratish
8. uzor - yuz, chehra(ot)
9. muzmar – yashirin(ravish)
10. xoro – qattiq tosh (ot)
11. partav – nur(ot)
12. gulsiton – yorug'(sifat)
13. xaliloso – Ibrohim payg'ambar
14. malohat – yoqimli(sifat)
15. sarvqad – uzun bo'y(sifat+ot)
16. zeb –ziynat(ot)
17. zebo – go'zal(sifat)
18. inzavo – cheklanish(fe'l)
19. xalq – yaratmoq(fe'l)
20. qoni' – qanoat qiluvchi(ot)
21. hamd – maqtov
22. vasf – ta'rif

Asarda shaklan hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lib, ma'no jihatidan tubdan farqlanuvchi so'z – savdo so'ziginadir. Bu so'z hozirgi o'zbek tilida savdo-sotiq ma'nosida qo'llanilsa, Navoiy davri tilida fikr, o'y- hayol ma'nolarini anglatadi.

G'azal leksikasi Navoiyning juda ko'p so'zlarni ko'chma, metonimik, metoforik ma'nolarda qo'llagani haqida dalolat beradi. Chunonchi, bozor so'zini kavnayn bozori birikmasida – hayot tarzi, hayot tashvishlari ma'nosida;

otashgoh –otashdan, o'txona so'zini chaman otashgahi birikmasida - hayot bog'I ma'nosida beradi.

qizarmoq – uyalmoq;

sorg'ormoq – xafa bo'lmoq; ochinmoq;

gul so'zi jannat guli birikmasida ishlatilini, eng oliy, go'zal mavjodot ma'nosida; tikan – tuban narsa, jannat gulining antonimi sifatida ishlatilgan.

Alisher Navoiy badiiy san'atlarni namoyish qilishda leksik imkoniyatlardan o'ta unumli foydalanadi. Asarning 9 va 10-baytlaridagi zebo va qanoat so'zalaridan unumli foydalanib, qalb san'ati asosida hayratangiz usullar bilan murakkab falsafiy ma'nolarni ifodalashi buning yorqin dalilidir. Chunonchi, Navoiy zebo so'zining yozilishida زيب (zeb) – pardoz, ziynat so'zi (alif) harfining yonida kelishidan yuksak san'at bilan foydalanadi. (alif) – go'zal, sar qad ramzidir. Shoir 9-baytda Haq (alif) day qadu-qomatning o'z go'zalligi bilan chegaralanmay, unga zebu-ziynat bag'ishlaganligi natijasida zebo bo'ldi, Ya'nikim, زيب + ا dan زيبا so'zi hosil bo'lishini ta'kidlamogda. “Zebo” – “زيبا” so'zi zeb berilgan sarv qomat ma'nosida kelgan.

Xuddi shunday mahoratni buyuk mutafakkir 10-baytda ishlatib, qanoat so'zining ma'nosini ochib beradi, Arabchada qanoat "ق" hoyi hutti bilan ya'ni "ق" siz yoziladi: قناعه va ko'p hollarda "qano'a" deb o'qiladi. Qanoat – o'zni tiyish, boriga shukr qilish demak. Inzavo – cheklanish, yashirinish, behuda tashvishlardan o'zni chetga olish, huda-behuda ishga aralashmaslik degani.

Qanoat so'zi ق'ن'ع va ba'zan o'qilmaydigan "q" harflaridan iborat. Xuddi ana shu harflar عناق – (anqo) so'zi tarkibida va قانع (qoni') – qanoat qiluvchi ma'nosidagi so'zda ham uchraydi. Ushbu bayt bilan Alisher Navoiy qanoatlikning mohiyati huda-behudalikka aralashmaslik, o'zni cheklashda deya ta'kidlamogda.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ushbu g'azali bilan so'zdan unumli foydalanishning yuksak mahoratini namoyish eta olgan.

3. G'azalning ayrim morfologik xususiyatlari.

G'azalda hozirgi o'zbek tilidan farqlanadigan morfologik ko'rsatgichlar sanoqlidir. Bular (asarda qo'llanilgan tartibda):

1. Chiqish kelishigining –din shaklida qo'llanishi:

- 1) zuhuridin (1-bayt);
- 2) guldin (3-bayt);
- 3) o'tdin (3-bayt);
- 4) ondin (4-bayt);
- 5) nedin (6-bayt);
- 6) o'tidin (6-bayt);
- 7) yuzungdin (6-bayt);
- 8) nedin (7-bayt);
- 9) yoshidin (7-bayt);
- 10) partavidin (8-bayt);
- 11) nedin (8-bayt);
- 12) harfidin (10-bayt).

2. Kesimlik qo'shimchasining –durur shakli.

- 1) mushkuldurur (2-bayt).

3. So'roq olmoshining ne shakli.

- 1) ne (5-bayt);
- 2) nedin (6-bayt);
- 3) nedin (7-bayt);
- 4) nedin (8-bayt).

4. Tushum kelishigining –n shaklida ishlatilishi.

- 1) o'zin (8-bayt);
- 2) qomatin (9-bayt);
- 3) dalilin (10-bayt);
- 4) vasfin (11-bayt).

Qolgan qo'shimchalardagi hozirgi o'zbek tilidan farqli xususiyatlari -- ib o'rnida –ub, -ing o'rnida –ung, -ga o'rnida -g'a morfologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lmay, fonetik singarmonizm bilan bog'liqdir.

МУНДАРИЖА

Исроил Субҳоний. Адабиёт қайғуси	4
Авезов С.С. Теран назар ва соҳир қалб соҳиби.....	7

I-BO'LIM. O'ZBEK FILOLOGIYASI MASALALARI

Иброҳим Ҳаққул. Навоий шеъриятида тарк тушунчаси ва талқинлари	11
Абулова З. Адабий ва дидактик материаллар тайёрлаш ҳамда улардан фойдаланиш йўллари	17
Абдуллаева Л. Турли синфларда ёзувчи ҳаёт йўлини ўргатишнинг ўзига хос жиҳатлари	19
Амонова Зилола, Раҳимова Гулшан. Самандар Воҳидов ижодида ҳунар аҳлининг улуғланиши	21
Asadov T.H. Matbuot tili va nutqning aloqaviy sifatleri	23
Астанова Гулнора. “Минг бир кеча” асаридаги “ўхшатиш”ли жумлаларнинг ўзбекча таржимада акс эттириш услублари	26
Ахмедова Р. Халқ педагогикасида адабий тарбия муаммоларининг акс этиши	29
Ashurova Z. Kaykovusning nutq madaniyati va notiqlik san'ati haqidagi qarashlari	31
Бабаева В., Файзиева Г. Бадиий асарни ўзлаштиришда ифодали ўқишнинг ўрни	33
Баротова Д., Муродова Г. Компьютерда ишлаш жараёнида содир этилиши мумкин бўлган муаммоларни бартараф этиш йўллари	35
Bozorova V. Ho'jandiy "Latofatnoma"sining o'ziga xos xususiyatlari	37
Бекова Назора Жўраевна. “Улуғ комлардин эдим бахтиёр...”	39
Бекова Назора, Сайлиева Мохинур. О сборнике стихов Алишера Навои «Девони Фони»	43
Бекова Назора, Муллокулова Шоҳиста. Бир тушунчанинг икки тилдаги поэтик талқини.....	48
Бекова Назора, Убайдуллаева Холида. Айний “Фоний” таҳаллусли шоирлар ҳақида	53
Бекова Н., Қобилова Г. Қасиданавислик тарихидан.....	55
Namidova Mahliyo. "Bugun sevgi oddiy ishga aylandi..."	57
Ҳайдарова Ҳ.Б. Ўрта Осиё мусулмонларининг ҳаж зиёрати (1917-1990 йиллар).....	59
Ҳазратова К.С., Муродова Г.Т. Ҳолат равишларининг феъл билан бирикиши.....	61
Жабборова Д. Назарий билимлар – матнни идрок этиш воситаси	63
Жабборова Д. “Ҳайрат ул-аброр” достонида эътиқодий қарашлар воситасида ижтимоий-сиёсий ғоялар бадиий талқини.....	65

Jo'rayeva Dildora Komilovna. O'rta maxsus ta'lim tizimida adabiyot darslarini tashkil etish.....	67
Jo'rayeva Mavjuda. Akademik litseylarda ona tili va adabiyot fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish	69
o'rayeva Mavjuda. Xalq og'zaki ijodi janrlarida tarixiy voqealar tasviri.....	72
Каримов Р. "Фикрий хужум" - муаммони ечишнинг энг самарали йўли	75
Mirzayeva M. "Qutadg'u bilig" dostonini o'rganish tajribasidan	77
Мирзаева М. Матни таҳлил этишда илмий тушунчаларнинг ўрни.....	78
Muhammadova M. Buxoro adabiy muhiti Nisoriy talqinida.....	80
Muhammadova M. "Muzakkiri ahbob"da Naqshbandiya tariqatiga munosabat	82
Muhammadiyeva Xolida. Abdurauf Fitrat – erk va ozodlik kuychisi.....	84
Муродов Файрат. Абадий шеърят.....	86
Nazarova S.A., Axmedova S. [O ^{ko'm} ~Sf] qurilmasining maqollarda voqelanish imkoniyatlari	90
Nazarova S.A., Nasriddinova S. Qo'shma gap tarkibi va uni shakllantiruvchi qismlar xususida.....	93
Назарова С.А., Ф.Раҳматуллаева. Сўз бирикмаларидаги маъновий муносабатлар	96
Norova Alomat Mustafoyevana, Hazratova Kimyo Samandarovna. Innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch.....	99
Norova Alomat Mustafoyevana, Maxmudova Nasiba Jo'rayevna. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarni shakllantirish	101
Ortiqova H.M., Shomurodova N. Erkin Vohidov she'riyatida tashbeh san'atining qo'llanishi.....	103
Қиличев Б.Э. Ўзбек тили ва дунё маданияти	105
Қодирова Насима Саидбурхоневна. Ғазал талқинида мунаққид маҳорати	108
Rajabov O., Sh.Imomova. Najmiddin Kubro – so'fiy shoir.....	111
Rajabov T., Qurbonov N. Modern she'riyati taraqqiyoti va obrazlar jilosi.....	113
Рустамова Гавҳар. Ўзбек болалар эркаламаларида ҳайвонлар образи.....	116
Саидов Ё. , Зарипова Д. Камий лирик асарларидаги айрим метафораларнинг лингвокультурологик таҳлили.....	118
Саидова Райҳоний. Vadiiy matnni struktur ta'hlil qilish.....	120
Саидова Райҳоний. Адабиётшунослиқда семиотиканинг ўрни	122
Samadova S. Navoiy g'azallarida zolim podshohlar tanqidi	123
Самадова С. Дарс жараёнида ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олишнинг зарурияти	125
Sayliyeva Zarina. Bir g'azal asosida eski o'zbek tilining leksik xususiyatlari.	127
Сайлиева Зарина. Қаноатнинг навоиёна талқини	130
Sayliyeva Zarina. «G'aroyib us-sig'ar»dagi 2-g'azalning fonetik xususiyatlari	131